

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

MIRZAYEVA FAROXAT

**KASBIY FANLARNI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

(uslubiy qo'llanma)

TOSHKENT – 2013

Annotatsiya

Mazkur uslubiy qo'llanmada kasbiy fanlarni o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish, interfaol ta'limni tashkil etishning o'ziga xosliklari, interfaol metodlar va grafik organayzerlar, keys-stadi, o'quv loyihasi va o'quv portfoliosi kabi ilg'or pedagogik texnologiyalarga oid nazariy materiallar hamda "Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish" faniga doir amaliy mashg'ulotlar o'z aksini topgan.

Uslubiy qo'llanmadan pedagogika oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari, talabalar, pedagogika kolleji o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: pedagogika fanlari doktori, professor
Oynisa Musurmonova,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Begzod Xodjaev

Metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2013 yil 12- dekabrda 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

SO'Z BOSHI

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish maqsadida o'qituvchi avvalo pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasasining tayyorlaydigan ixtisosligini e'tiborga olgan holda differentsial o'qitishni amalga oshirishi lozim. O'quvchilarni kasbiy yo'naltirish nafaqat ta'lim mazmuniga kelgusida egallaydigan kasb haqida ma'lumot berish, balki mazkur kasb talab etadigan bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, shaxsiy sifat va fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur jarayonda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishish mumkin.

"Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish" kursi kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning nazariy asoslari, kasbiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, o'yin texnologiyalarini qo'llash, keys-stadi, o'quv loyihasi, o'quv portfoliosidan foydalanish imkoniyatlari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Fanni o'qitishdan **maqsad** – bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Fanning **vazifasi** – talabalarni ilgor pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga doir bilimlar bilan qurollantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonini loyihalash va rejalashtirishga o'rgatish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

I BOB. NAZARIY MASHG'ULOTLAR ISHLANMALARI

1.1. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish: muammo va vazifalar

MASHG'ULOTNING TUZILISHI

Mashg'ulot rejasi:

1. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq tushunchalar va ularning mohiyati.
2. O'quv mashg'ulotini loyihalash va rejalashtirish mazmuni.
3. O'quv mashg'ulotining maqsad va vazifalarini aniqlashtirish.
4. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish tizimi.

Adabiyotlar:

1. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2010.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.
3. Tolipov O'Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarning kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning kontseptual asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirish.

Pedagogik vazifalar:

- ilg'or pedagogik texnologiya-larni qo'llash bilan bog'liq tushunchalar va ularning mohiyatini aniqlashtirish;
- o'quv mashg'ulotini loyihalash va rejalashtirish mazmunini yoritib berish;
- o'quv mashg'ulotining maqsad va vazifalarini aniqlashtirish yo'llarini izohlash;
- kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish tizimini ko'rsatib berish.

Ta'lim metodi: ma'ruza, tushuntirish, asoslangan esse.

Talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish shakli: ommaviy, individual.

Didaktik vositalar: slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar.

Ta'limni tashkil etish sharoiti: maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona.

MASHG'ULOTGA DOIR TARQATMA MATERIALLAR

1-tarqatma material. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq tushunchalar va ularning mohiyati

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

O'qitish texnologiyasi – o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bir bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarni oqilona tanlab olish, o'qituvchi va o'quvchining vazifalarni oydinlashtirishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Tarbiya texnologiyasi – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.


Identiv o'quv maqsadi – texnologik jarayonning asosiy komponenti bo'lib, kutiladigan natijaga aynan mos keladigan o'quv maqsadi. Identiv o'quv maqsadi o'z navbatida o'quv vazifalariga aylantiriladi.

Interfaol metod – o'quv jarayoning tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham o'quvchini faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmui.

Grafik organayzerlar – o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor, to'ldirilgan holda qo'llasa, vosita vazifasini, o'quvchilarning

mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi.

2-tarqatma material. O'quv jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlari



3-tarqatma material. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish tizimi

o'quv mashg'ulotlari texnologiyasi	interfaol metodlar	grafik organayzerlar
1. Nazariy mashg'ulotlari ta'lim texnologiyasi. 2. Amaliy mashg'ulotlar ta'lim texnologiyasi. 3. Mustaqil ta'lim texnologiyasi. 5. Keys-stadi ta'lim texnologiyasi. 6. Loyiha ta'lim texnologiyasi	1. Aqliy hujum. 2. Erkin yozish. 3. Asoslangan esse. 4. FSMU. 5. Blits-so'rov. 6. Blits-o'yin. 7. O'qitish o'qitish qo'llanma. 8. Yozma va og'zaki davra suhbat. 9. Tushunchalarni aniqlash. 10. Tushunchalar asosida	1. Klaster. 2. B-B-B chizmasi. 3. T-chizma. 4. Venn diagrammasi. 5. Kontseptual jadval. 6. Insert jadvali. 7. "Nima uchun?" chizmasi. 8. "Qanday?" diagrammasi. 9. Baliq skeleti. 10. Toifalash jadvali.

	matn tuzish. 11. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma- ketligi	11. Nilufar guli chizmasi.
--	--	----------------------------

**4-tarqatma material. B.Blum taksonomiyasi bo'yicha o'quv maqsadlari
toifalariga mos keluvchi fe'llardan namunalar**

№	O'quv maqsadlari	Fe'llar	
		O'qituvchi	O'quvchi
	Bilish	Qayta ishlab chiqmoq Yozib qo'yimoq Ma'lumot bermoq Nomlamoq, aytmoq Yozmoq	Tasvirlamoq Ajratmoq Tanib olish Aytib berish Takrorlamoq
	Tushunish	Dalillar keltirmoq Almashtirmoq Aniqlamoq, Belgilamoq Tushuntirmoq	O'tkazmoq O'zgartirib berish Ko'rsatmoq Sharhlamoq Ochmoq
	Qo'llash	Joriy etish Hisoblab chiqmoq Namoyish etmoq Foydalanish O'rgatmoq	Belgilab chiqish Joriy etish Aniqlamoq Amalga oshirish Echmoq
	Analiz	Keltirib chiqarish Ajratib ko'rsatish Differentsiyalash Tasniflash	Oldindan aytish Qismlarga ajratish Taqsimlash Tekshirish
	Sintez	Ixtiro etish Umumiylashtirish Rejalashtirish Ishlab chiqish	Tizimga solish Birlashtirish Yaratish Loyihalash
	Baholash	Isbotlash Asoslash O'lchash Ma'qullash	Baho berish Nazorat ettish Tekshirish, Taqqoslash

1.2. KASBIY FANLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

MASHG'ULOTNING TUZILISHI

Mashg'ulot rejasi:

1. Interfaol metodlar tushunchasi.
2. Interfaol metodlar tasnifi.
3. Interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari.

Adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.

2. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2006. – 96 b.

3. Xodjaev B.X. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2008. – 69 b.

4. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2010.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda kasbiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish yo'llariga doir bilimlarni tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar:

- interfaol metodlar tushunchasi mohiyatini aniqlashtirish;
- interfaol metodlar tasnifini tavsiflash;
- interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatib berish.

Ta'lim metodi: ma'ruza, tushuntirish, toifalash jadvali.

Talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish shakli: ommaviy, individual.

Didaktik vositalar: slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar.

Ta'limni tashkil etish sharoiti: maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona.

MASHG'ULOTGA DOIR TARQATMA MATERIALLAR

1-tarqatma material. “Interfaol metodlar” tushunchasi

Interfaol va interaktiv soʻzlari bir xil maʼnoda boʻlib, interaktiv soʻzi inglizcha “inter” – “birgalikdagi” va “act” – “harakatlanish” soʻzlaridan olingan. Interaktivlik birgalikda harakatlanish yoki suhbat, dialog rejimida nimadir (masalan, kompyuter) yoki kimdir (oʻqituvchi) bilan boʻlish demakdir. Bundan kelib chiqadiki, interaktiv taʼlim – avvalo dialogli taʼlim boʻlib uning davomida oʻqituvchi va oʻquvchi, oʻquvchi va kompyuter oʻzaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Interfaol taʼlimning asosini interfaol metodlar asosida darsni olib borish tashkil etadi. Taʼlimning interfaol metodlari oʻquvchilarning ulkan taʼlimiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, oʻquv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi: taʼlim oluvchilar guruhining aqliy kuchi uning aʼzolari kuchi yigʻindisidan koʻproq (yaʼni guruh natijasi individual natijalar yigʻindisidan doimo ortiq).

Interfaol oʻqitishning mohiyati oʻquv jarayonini shunday tashkil etadiki, unda barcha oʻquvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan boʻlib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega boʻladilar. Interfaol taʼlim – bu taʼlimdagi chuqurlashtirilgan muloqot. Hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda oʻquvchilarni oʻz-oʻzini rivojlantiradigan, oʻzi mustaqil izlanib, bilimlarni egallaydigan darajaga olib chiqish asosiy vazifa hisoblanadi.

Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida maʼlum nazariy bilimlarni oʻquvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan koʻnikma va malaka hosil qilish, maʼnaviy sifatlarni shakllantirish, oʻquvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash oʻqituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi.

2-tarqatma material. Interfaol metodlar tasnifi

O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Blits-so'rov.	Insert chizmasi. B-B-B chizmasi. O'qitish bo'yicha qo'llanma. Bir-biriga o'rgatish. Bir-biridan so'rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Toifalash jadvali. Nima uchun? chizmasi. "Qanday?" diagrammasi. Venn diagrammasi. Besh minutlik esse. O'n minutlik esse.

3-tarqatma material. Interfaol metodlardan foydalanish yo'llari

KLASTER GRAFIK ORGANAYZERI

Klaster (Klaster-tutam, bog'lam) – axborot xaritasini tuzish yo'li; barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Grafik organayzerning turi, ahamiyati va xususiyatlari: bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

O'quv faoliyatini tashkilashtirishning jarayonli tuzilmasi:

1) o'quvchilar klasterini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi;

2) birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi

mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.

3) muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

Klasterni tuzish qoidasi:

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.

2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.

3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

“CHALKASHTIRILGAN MANTIQIY ZANJIRLAR KETMA-KETLIGI” INTERFAOL METODI

Masalan, “Ta’lim metodlari” mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazilayapti, deylik. Dastlab o'qituvchi doskaga ta'lim metodlarni chalkashtirilgan holda yozib qo'yadi. So'ngra, ulardan mazkur metodlarni qaysi guruhga kirishiga qarab, og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarga tasniflashni taklif etadi.

Mashq

Hikoya

Videometod

Munozara

Didaktik o'yinlar

Laboratoriya metodi

Suhbat

Tushuntirish

Ma'ruza

Kitob bilan ishlash

Illyustratsiya

Demonstratsiya

Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy
Hikoya	Videometod	Mashq
Munozara	Kitob bilan ishlash	Didaktik o'yinlar
Suhbat	Illyustratsiya	Laboratoriya metodi
Tushuntirish	Demonstratsiya	
Ma'ruza		

ERKIN YOZISH METODI

O'quvchilarga besh daqiqa ichida "O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni" mavzusi bo'yicha o'z xayollariga kelgan barcha narsalarni to'xtamasdan yozishni taklif qilish mumkin. Besh daqiqa tugaganida (eslatma, besh daqiqa tugadi deb e'lon qiling va ishni tugallash uchun yana bir daqiqa vaqt bering, zero qiziqarli fikrlar odatda tang vaziyatlarda tug'iladi) ularga o'z yozganlarini sheriklariga o'qib berishini taklif etish mumkin.

Mazkur bosqichda o'qituvchining ixtiyorida ko'p imkoniyatlar bo'ladi. Masalan, juftliklarga o'z fikrlarini butun guruh bilan o'rtoqlashishni taklif etish va guruhiy-aqliy hujum vaziyatini yaratish mumkin.

INSERT JADVALI

Grafik organayzerning turi, ahamiyati va xususiyatlari: mustaqil o'qish vaqtida olgan ma'lumotlarni, eshitgan ma'ruzalarni tizimlashtirishni ta'minlaydi; olingan ma'lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o'zlashtirgan ma'lumotlarni bog'lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O'quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi:

1) o'quvchilar insert jadvalini to'ldirish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida o'zlari to'ldiradilar;

2) o'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq alohida o'zlari jadval ustunlariga "kiritadilar" va tizimlashtiradilar:

"V"- men bilgan ma'lumotlarga mos;

“-“ - men bilgan ma'lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma'lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma'lumotni aniqlash, to'ldirish talab tiladi.

V	+	-	?

O'QITISH BO'YICHA QO'LLANMA

Bunday ishlanmalar o'quvchilarning tadqiq etish faoliyatini ular matnni mustaqil o'qish topshirig'ini olishganida yo'naltirishga yordam beradi. Quyida e'tiborimizni, yalpi o'qish paytida, savollar yozilgan varaq tufayli, o'quvchilarning e'tiborini "O'quv maqsadlarini oydinlashtirish" to'g'risidagi matn ichida sochilgan muayyan detallarga jalb etilganiga qaratamiz. Undan avval materialni o'zlashtirish uchun o'qitish bo'yicha qo'llanma quyidagi hollarda yaxshi ko'makchi ekanligini eslatib o'tish lozim:

1) talabalarga o'zlarining kuzatishi ehtimoldan uzoq bo'lgan fikrning ancha nozik harakatini sezishda yordam beradi.

2) ishning hamma bosqichlarida yuqori tartibdagi fikrlashni rag'batlantiradi;

3) munozara yoki yozma ish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, ya'ni o'quvchi o'z qobig'iga o'ralib qolmaydi.

1. O'quv maqsadlarini oydinlashtirish deganda nimani tushunasiz?

2. Ta'lim maqsadlarini qay tarzda belgilash kutilgan natijaga erishishga imkon beradi, deb hisoblaysiz?

1) ta'lim mazmuniga binoan belgilash; 2) o'qituvchi faoliyati orqali aniqlash;
3) talaba shaxsining ruhiy, aqliy, axloqiy, estetik jarayonlari shaklida ifodalash;
4) talabaning o'quv-bilish faoliyati orqali qo'yish.

3. Ta'lim maqsadi talabaning harakatlarida aks etgan o'qish-o'qitish natijalari orqali ifodalanishi kerak, degan fikrga qanday qaraysiz?

VENN DIAGRAMMASI

Venn diagrammasi bir-birini kesadigan ikki yoki undan ortiq doiralarda qo'llaniladi, ular o'rtasida yozish uchun etarli joy qolishi kerak. U g'oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini ko'rsatib berishi kerak.


Grafik organayzerning turi, ahamiyati va xususiyatlari: tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi:

1) o'quvchilar Venn diagrammasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida yoki kichik guruhlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarni to'ldiradilar;

2) juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar;

3) doiralarni kesishuvchi joyida, ikki-uch doiralar uchun umumiy bo'lgan, ma'lumotlar ro'yxatini tuzadi.



B-B-B JADVALI – BILAMAN/ BILMOQCHIMAN/ BILIB OLDIM

Grafik organayzerning turi, ahamiyati va xususiyatlari: mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi:

1) jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida yoki kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar;

2) “Mavzu bo’yicha nimalarni bilasiz?” va “Nimani bilmoqchisiz?” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo’naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning birinchi va ikkinchi bo’limlarini to’ldiradilar;

3) ma’ruzani tinglaydilar, mustaqil o’qiydilar;

4) mustaqil yoki kichik guruhlarda jadvalning uchinchi bo’limini to’ldiradilar.

B-B-B JADVALI		
Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim

1.3. KEYS-STADI METODI: AFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI MASHG’ULOTNING TUZILISHI

Mashg’ulot rejasi:

1. Keys-stadining kelib chiqish tarixi.
2. Keys-stadi metodining kategorial apparati.
3. Keys turlari va ularning o’ziga xosliklari.
4. Keys topshiriqlarini ishlab chiqish qoidalari.

Adabiyotlar:

1. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2010.

2. Yo’ldoshev J.G’., Usmonov S. Ilg’or pedagogik texnologiyalar. – T.: O’qituvchi, 2004.

3. Tolipov O’Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.

O’quv mashg’ulotining maqsadi: talabalarda keys-stadi metodi va uning o’ziga xosliklariga doir bilimlarni tarkib toptirish hamda keys-stadi metodini qo’llashga doir ko’nikma va malakalarni tarkib toptirish .

Pedagogik vazifalar:

- keys-stadi metodining kelib chiqish tarixini bayon etish;
- keys-stadi metodining kategorial apparatini aniqlashtirish;

- keys turlari va ularning qo'llanilish tavsifini izohlash;
- keys topshiriqlarini ishlab chiqish qoidalari bilan aniqlashtirish.

Ta'lim metodi: ma'ruza, tushuntirish, videometod.

Talabalarining o'quv faoliyatini tashkil etish shakli: ommaviy, individual.

Didaktik vositalar: slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar.

Ta'limni tashkil etish sharoiti: maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona.

MASHG'ULOTGA DOIR TARQATMA MATERIALLAR

1-tarqatma material. Keys-stadining kelib chiqish tarixi.

Keys-stadi inglizcha sase – aniq vaziyat, stadi – ta'lim co'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

Ushbu metod dastlab 1920 yilda Garvard biznes maktabida qo'llanilgan. Garvard biznes maktabining o'qituvchilari biznes yo'nalishidagi aspirantura bo'limi uchun to'g'ri keladigan darsliklarning mavjud emasligini tez anglaydilar. Ushbu masalani yechish uchun biznes maktabining o'qituvchilari tomonidan qo'yilgan dastlabki qadam etakchi biznes amaliyotchilaridan interv'yu olish hamda mana shu menejerlarning faoliyati, unga ta'sir etuvchi omillar yuzasidan batafsil xisobot yozish bo'ldi. Ma'ruza tinglovchilarga u yoki bu tashkilot to'qnash kelgan konkret vaziyat, ushbu vaziyatni tahlil etish va mustaqil ravishda yoki jamoa bo'lib munozara tashkil etish asosida uning echimi topish tarzida taqdim etilar edi. Keyinchalik keys metodi biznes yo'nalishidagi ta'lim muassasalarida keng targ'ib etilgan. Hozirgi kunda esa,

kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan mazkur metod tarafdorlari ko'payib bormoqda.

2-tarqatma material. Keys-stadi metodining kategorial apparati

Keys-stadi ta'lim metodining kategorial apparatini shakllantirish undan foydalanishning samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatini beradi hamda ta'lim jarayonida metodning texnologiyalashtirishga imkon beradi. Keys-stadi metodining asosiy tushunchalari qatoriga "vaziyat" va "tahlil", ushbu ikki tushunchaning uyg'unlashuvidan kelib chiqqan "vaziyat tahlili" kiradi. Falsafiy nuqtai nazardan "vaziyat" atamasi o'z ichiga bir qator kontekstlarni birlashtiradi. Shuning uchun, ushbu atama yuqori darajadagi barqarorsizlik bilan tavsiflanuvchi va o'z tarkibida bir qator ziddiyatlarga ega bo'lgan muayyan holat sifatida izohlanishi mumkin. Vaziyat aksariyat hollarda o'zgarish moyilligiga ega bo'lib, uning o'zgarishi ushbu vaziyatda ishtirok etuvchi sub'ektlarning faoliyatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Vaziyat insonlar ta'siriga nisbatan ochiq bo'lib, insonlarning xatti-harakatlari esa ushbu vaziyatda o'z maqsadlariga erishishlari va qiziqishlarini qondirishlariga bog'liq bo'ladi.

Keys-stadi metodining yana bir bazaviy kategoriyasi bu "tahlil (analiz)"dir. Tahlil etish kategoriyasi ob'ektni xayolan bo'laklarga bo'lish yoki ilmiy tadqiq etish sifatida tushunilishi mumkin. Analizning turli tasniflari mavjud bo'lib, umumiy ma'noda analiz tasnifini quyidagicha aniqlashtirish mumkin: tizimli analiz, korrelyatsion analiz, faktorli analiz, statistik analiz va boshqalar. Analizning ushbu barcha turlari keys-stadi metodi doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lib, mazkur holat metodning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Keys-stadida vaziyatni anglash, tafakkur qilish jarayonida amalga oshishi mumkin bo'lgan bir qator analitik faoliyat turlari ishtirok etishi mumkin. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan yuqori darajadagi metodologik madaniyatni talab etadi.

Nizomiy nomli

T D P U

kutubxonasi

4-7607/2

3-tarqatma material. Keys turlari va ularning o'ziga xosliklari

Keys-stadining muammoli vaziyatining determinatsiyasi asosiy manbalari turlicha tasnifga ega bo'lishi mumkin. Keys-stadini tuzishning amaliyotida asosan bir manbaning usutunlik qilishi kuzatiladi. Ushbu yondashuv, manbalarning ta'siriga ko'ra, keys-stadi texnologiyasi doirasida keyslarni tasnifga asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Bunda *amaliy keyslarni* ajaratish mumkin, ular mutlaq hayotiy vaziyatlarni tavsiflaydi; bundan tashqari *ta'limiy keyslar* guruhini ham ajratish mumkin, ularning asosiy vazifasi ta'lim berishdir; *ilmiy-tadqiqotchilik keyslari*, tadqiqotchilik faoliyatini yuzaga keltirish maqsadini ko'zlovchi keyslar sarasiga kiradi.

Amaliy keyslarning asosiy vazifasi – hayotiy vaziyatni mukammal darajada aks ettirishdir. Mohiyatan ushbu keyslar toifasi vaziyatning amaliy modelini shakllantiradi. Keys-stadi metodi o'zida ta'limiy funktsiyani mujassam etsada, turli keyslarda ushbu funktsiyaning namoyon bo'lish darajasi xilma-xil bo'ladi. Shuning uchun ta'limiy funktsiyasi etakchilik qilayotgan keyslar hayotni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Ayni shunday xususiyatlar tadqiqotchilikka doir keyslarga ham xos bo'lib, uning asosiy mazmunini insonning vaziyatga tegishli yangi ma'lumotga va unda o'zini tutishning yangi usullariga ega bo'lish tashkil etadi. Uning ta'limiy funktsiyasi ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini modellashtirish metodi vositasida egallashdan iborat bo'ladi. Shuning uchun bunday keyslar texnologiyasidan kadrlarga dastlabki kasbiy bilimlarni berishda emas, bevosita kadrlar malakasini oshirishda, ya'ni mukammal kasbiy ko'nikma va malakalarga ega, tadqiqotchilik faoliyatiga tayyor sub'ektlar bilan ishlashda foydalanish maqsadga muvofiq.

4-tarqatma material. Keys topshiriqlarini ishlab chiqish qoidalari

Keys-stadi metodi o'zida quyidagi afzalliklarni va boshqa o'qitish metodlaridan ajralib turuvchi jixatlariga ega: 1) u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy tizim

modelining mavjudligi hamda ushbu model holatining muayyan vaqt birligi ichida tahlil etilishi; 2) muammo echimini aniqlashga jamoaviy tarzda erishish. Muammoning echimida turli muqobil javoblarning mavjudligi. Yagona echimning mantiqan mavjud emasligi; 3) muammo echimini izlashda yagona maqsadning qo'yilishi; 4) Faoliyatni baholashning guruhiiy tizimining mavjudligi.

Har qanday keys quyidagi strukturaga ega bo'ladi:

- ✓ vaziyat– muammo, hayotdan misol;
- ✓ vaziyatning konteksti – xronologik, tarixiy, joy konteksti, harakat ishtirokchilari o'ziga xosliklari;

- ✓ muallif tomonidan keltirilgan izoh;

- ✓ keys-stadi metodi bilan ishlashda topshiriqlar va savollar to'plami;

- ✓ ilova.

O'quvchilar tomonidan keysni yechish bosqichlari:

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, agar o'quvchilarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan iborat bo'lsa, ta'limiy maqsadlarga erishishda yanada ko'proq samaraga erishish mumkin:

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada) ishlash.

Keysni yechish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o'tkazish:

1) real vaziyat echimiga doir o'z variantlarini taqdim etadilar;

2) tanlangan harakatlar yo'lini izohlaydilar va echimning to'g'riligini asoslaydilar;

3) boshqa guruh a'zolarining savollariga javob beradilar va o'z takliflarini asoslaydilar.

1.4. O'QUV LOYIHASI – KASBIY FANLARNI O'QITISHNING SAMARALI METODI SIFATIDA

MASHG'ULOTNING TUZILISHI

Mashg'ulot rejası:

1. O'quv loyihasining o'ziga xosliklari.
2. O'quv loyihasi turlari.
3. O'quv loyihasi metodini qo'llashning samarali shakllari.
4. Kasbiy fanlarni o'qitishda o'quv loyihasi metodidan foydalanish yo'llari.

Adabiyotlar:

1. Бухаркина М.Ю. Разработка учебного проекта. – М., 2003.
2. Полат Е.С. Метод проектов. – М., 2001.
3. Ступнищкая М.А. Что такое учебный проект. – М., 2010.
4. Шапиро В.Д. и др. Управление проектами. – СПб.: “Два Три”, 2000.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda o'quv loyihasi o'ziga xosliklari, turlariga doir bilimlarni tarkib toptirish hamda kasbiy fanlarni o'qitishda o'quv loyihasi metodidan foydalanish yo'llariga doir ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish .

Pedagogik vazifalar:

- o'quv loyihasining o'ziga xosliklarini yoritib berish;
- o'quv loyihasining turlariga izoh berish;
- o'quv loyihasi metodini qo'llashning samarali shakllarini ajratib ko'rsatish;
- kasbiy fanlarni o'qitishda o'quv loyihasi metodidan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish .

Ta'lim metodi: ma'ruza, tushuntirish, illyustratsiya.

Talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish shakli: ommaviy, individual.

Didaktik vositalar: slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar.

Ta'limni tashkil etish sharoiti: maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona.

MASHG'ULOTGA DOIR TARQATMA MATERIALLAR

1-tarqatma material. Loyihaviy ta'limning asosiy tushunchalari.

- 1) loyiha;
- 2) loyihalashtirish;
- 3) loyihaviy faoliyat;
- 4) o'quv loyihasi;
- 5) o'quv loyihaviy faoliyat;
- 6) loyihaviy ta'lim;
- 7) loyihaviy ta'limning texnologiyasi.

Loyiha (design - dizayn) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi. **Loyiha** (projekt) – tushunchasi kengroq ifodalanib, ma'lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

“O'quv loyihasi” tushunchasi keng qamrovga ega bo'lib, quyidagi mazmunga ega:

- muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan talablarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vositalari va qurollari;

rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita.

2-tarqatma material. O'quv loyihasi turlari va ularning o'ziga xosliklari

Loyiha turi	Loyiha maqsadi	Loyiha mahsuli	O'quvchilar ning faoliyat turi	Shakllantiri- lishi ko'zda tutilgan kompetentlik
Amaliy yo'naltirilgan	Loyiha buyrtmachining vazifasini amaliy hall etish	Metodik tavsiyalar, tadbir stsenariylari, stendlar	Amaliy	Faoliyatga doir
Tadqiqotchi- likka oid	Qandaydir farazni ilgari surish va to'g'riligini isbotlash	Belgilangan usulda rasmiy-lashtirilgan tadqiqot natijasi	Mantiqiy, fikriy va operatsion faoliyat	Fikrlashga doir
Axboriy tavsifga ega	Biror bir ob'ekt yoki hodisa haqidagi ma'lumotlarni to'plash	Statistik ma'lumotlar, ijtimoiy fikrga doir so'rov natija-lari, biror masala yuzasi- dan turli muam- lolarning fikrlarini umumlash-tirish	Axborotlar bilan ishlashga doir faoliyayat	Axboriy
Ijodiy	Loyiha muammosiga badiiy qiziqishni oshirish	Badiiy asar(she'r, hikoya)lar, insho, esse	Ijodiy faoliyat	Kommunikativ
O'yinli va rolli	Loyiha muammosini izlab topish va uning hal etishga doir vaziyatni taqdim etish	Ishbop o'yin, viktoria, blits- so'rov, ekskursiya	Guruhiy faoliyat	Kommunikativ

3-tarqatma material. O'quv loyahasini amalga oshirish bosqichlari

Loyihai bajarish bosqichlari	O'quvchilar tomonidan hal etiladigan muammolar	O'quvchi faoliyati	O'qituvchi faoliyati	Ta'lim berish shakl va metodlari
Izlanishga doir	loyiha mavzusini tanlash; loyiha mavzusi bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, o'rganish tahlil qilish;	-muammoni muhakama qiladi; -vazifalarni ma'lumotlarni aniqlashtiradi va tahili qiladi	-o'quvchilarga muammoni taklif etadi va muhokama qiladi;	-muammoli suhbat; -hikoya; -maslahat; -mustaqil ish; -ekskursiya;
Konstruktorlik	-Loyiha vazifalarini optimal yechimlarini izlash; -dizayn talablariga ko'ra mahsulot variantlarini tanlash; -tehnologik va konstruktorlik hujjatlarini tayyorlash.	-ma'lumotlar bilan ishlaydi; -tahlil va sintez qiladi, g'oyalarni baholaydi; -grafik ishlarni bajaradi; -hujjatlar bilan ishlaydi.	-tashkil etadi, faollashtiradi, g'oyalarni topishga yordam beradi; -qaror qabul qilishga yordam beradi.	-suhbat; -taxlil; -rolli o'yin; -mustaqil ish.
Texnologik	-amaliy ish rejasini tuzish; -rejalashtirilgan texnik jarayonlarni bajarish; -zarur holda texnologiyaga o'zgartirish kiritish;	-mahsulot ishlab chiqaradi; -nazoratni amalga oshiradi; -mahsulot sifatini nazorat qiladi;	-moddiy bazani ta'minlaydi; -o'quvchilar faoliyatini boshqaradi; -maslahat beradi.	-suhbat; -namoyish etish; -mashq; -mustaqil ish; -amaliy ish.
Yakuniy	-loyiha sifatini, loyihani bajarish jarayoni va natijalarini baholash;	-Loyihani bajarish natijalarini tahili qiladi; -loyihani himoya qiladi;	-loyihani muhokama va himoya qilish jarayonini tashkil etadi; -tinglaydi; -o'quvchilarning loyiha ustidagi faoliyatlarini baholaydi va o'z bahosiga izoh beradi.	-maslahat, (rolli) ishchi o'yin; -taqdimot.

O'QUV LOHIYALARIDAN NAMUNALAR*

1-o'quv loyihasi ishlanmasi.

Mavzu: O'quvchilarda fuqorolik tarbiyasi va huquqiy tarbiyani shakllantirish.

Mundarija:

1. Loyiha muallifi.
2. Loyiha nomi : "O'quvchilarda fuqorolik tarbiyasi va huquqiy tarbiyani shakllantirish".
3. Kurs va guruh.
4. Loyihaning qisqacha anotatsiyasi
5. Loyiha savolari:
 - 5.1 Asosiy savol.
 - 5.2 Muammoli savollar.
 - 5.3 O'quv savollari.
6. Loyihani o'tkazish rejası.
7. O'quv loyihasi tashrif qog'ozı.
8. Loyiha mahsulotiga misol.

Loyiha muallifi: Zokirova Dilnoza

Loyiha nomi: O'quvchilarda fuqorolik tarbiyasi va huquqiy tarbiyani shakllantirish.

Kirish qismi:

Loyihaning qisqacha annotatsiyasi: Loyihada konstitutsiyaviy hujjatlar, ilmiy adabiyotlarga tayanib o'quvchilarda fuqorolik tarbiyasi va huquqiy tarbiyani shakllantirish borasida, o'tkazilishi mumkin bo'lgan usullar bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar:

Konstitutsiya, konstitutsiyaviy huquq, huquq, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, huquqiy ong, burch, fuqorolik, fuqorolik tarbiyasi.

Asosiy savol: Huquq nima?

* Mazkur o'quv loyihalari ishlanmalari D.Zokirova tomonidan yozilgan bitiruv malakaviy ishi materiallaridan olindi.
Ilmiy rahbar: dots. B.X.Xodjayev.

Muammoli savollar:

1. Bugungi kunda har bir O'zbekiston fuqorosi o'z huquqlarini to'liq biladimi?
2. Insonlarning boshqa jonzotlardan farqi ularni nimani qilish mumkin-u va nimani qilish mumkin emasligini bilishlaridami?

O'quv savollari:

1. Fuqarolik tarbiyasi va huquqiy tarbiyaning o'zaro bog'liq tomonlari bormi?
2. Inson hayotida huquqning o'rni qanday?
3. Inson huquqlari konstitutsiyamizda qanday belgilangan?



Mavzu "O'quvchilarda fuqarolik tarbiyasi va huquqiy tarbiyani shakllantirish".

Guruh № _____

Loyiha muallifi _____

Taqdimot o'tkazish vaqti _____

Loyiha rejasi:

1. Huquq tushunchasi va uning amaliy ahamiyati.
2. Fuqarolik huquqlari va burchlari.
3. Fuqarolik tarbiyasi va huquqiy tarbiyaning o'ziga hos jihatlari.

Huquq nima? Ma'lumotalarga ko'ra "Huquq va fuqarolik huquqi nima" savoliga turli kasb egalari turlicha javob beradilar.

Huquqshunoslar: Huquq davlat tomonidan belgilangan va kafolotlangan har bir fuqoro uchun majburiy meyorlar.

O'qituvchilar: Huquq bu har bir insoninig qonun yo'li bilan kafolotlangan huquqlari.

O'quvchilar: Huquq bu insonlarga qonuniy ravishta bajarishga ruhsat etiladigan harakatlar.

Shifokorlar: Huquq har bir insonga davlat tomonidan tasdiqlangan va konstitutsiyada keltirilgan ko'rsatmalar.

Uy bekalari: Huquq bu har bir insoning qonuniy erkinligi.

Amaliy qism:

So'rovnoma: Bugungi kunda hamma o'quvchilar fuqorolik huquqlarini to'liq biladilarmi?

1. "Qonun yo'li bilan kafolotlangan huquqlar" atamasi mazmunini qanday tushunasiz?

2. O'zbekiston fuqorosining konstitutsiaviy huquqlarini bilasizmi?

a. ha, to'liq bilaman

b. qisman bilaman

c. bilmayman

3. Huquqlar, erkinliklar, burchlar ulardagi farqlarni bilasizmi? Izohlang.

4. Konstitutsiyaga kiritilgan so'ngi o'zgartiishlar.

5. Huquqiy madaniyattushunchasi mohiyatini bilasizmi?

a. bilaman

b. qisman bilaman

c. bilmayman

2-o'quv loyihasi ishlanmasi.

Mavzu: Barkamol shaxs tarbiyasida jismoniy tarbiyaning o'rni.

Mundarija:

1. Loyiha muallifi.

2. Loyiha nomi: "Barkamol shaxs tarbiyasida jismoniy tarbiyaning o'rni".

3. Kurs va va guruh.

4. Loyihaning qiasqacha annotatsiyasi

5. Loyihaning savoli:

5.1 Asosiy savol.

5.2 Muammoli savollar.

5.3 O'quv savollari.

6. O'quv loyihasi tashrif qog'ozi.

7. Loyiha mahsulotiga misol.

Loyiha muallifi: Zokirova Dilnoza

Loyiha nomi: “Barkamol shaxs tarbiyasida jismoniy tarbiyaning o’rni”.

Loyihaning qisqacha annotatsiyasi: Loyihada barkamol shaxs tarbiyasida jismoniy tarbiyaning o’rni va ahamiyati ilmiy manbalarga asoslanib, pedagogik adabiyotlardan foydalanib, grafik organayzerlar, interfaol metodlar orqali yoritilgan.

Tayanch tushunchalar: barkamollik, salomatlik, badantarbiya, fiziologiya, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya.

Asosiy savol: shaxs shakllanishida jismoniy tarbiyaning samarali ta’siri qanday?

Muammoli savollar:

1. Ta’lim muassasida jismoniy tarbiya darslari orqali o’quvchilar salomatligini mustaxkamlash mumkinmi?

2. Gimnastik mashqlar salomatlikni to’la mustahkamlay oladimi?

3. Bizning hayotimizda jismoniy tarbiyaning qanday o’rni bor?

O’quv savollari:

1. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sog’lomlashtirish tizimining asosiy yo’nalishlari va sportning qanday turlari rivojlanmoqda?

2. Organizmni chiniqtirish qanday yo’llari va qanday gigienik qoidalar mavjud?

3. Jismoniy madaniyat tushunchasining mazmunini izohlang.

O’quv loyihasi tashrif qog’ozi



Loyiha nomi: “Barkamol shaxs tarbiyasida jismoniy tarbiyaning o’rni”.

Guruh № _____

Loyiha muallifi _____

Taqdimot o’tkazish vaqti _____

2.2 3-rasm

Loyiha rejasi:

1. Jismoniy tarbiya va ta'lim jarayonining uyg'un tashkil etilishi.
2. Jismoniy tarbiya va sport sog'lom avlod asosi.
3. Jismoniy tarbiya orqali jismoniy madaniyatni rivojlantirish.

Amaliy qism

So'rovnoma:

1. Siz ertalabki badantarbiya mashg'ulotlari bilan muntazam shugullanasizmi?
 - a) ha
 - b) yo'q
 - c) ba'zan
2. Maktab yoki kollejingizda jismoniy tarbiya darslari talab darajasidami?
 - a) ha
 - b) yo'q
3. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash borasida olib borilayotgan ishlarga munosabatingiz.
 4. Salomatlikni mustaxkamlashda sportning o'rni qay darajada?
 5. Sport bilan muntazam shug'ullanasizmi?
 - a) ha
 - b) yo'q
 - c) ba'zan

1.5. O'QUV PORTFOLIOSI – O'QUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM VOSITASI

MASHG'ULOTNING TUZILISHI

Mashg'ulot rejasi:

1. O'quv portfoliosi va uning o'ziga xosliklari.
2. O'quv portfoliosining turlari.

3. O'quvchilarning bilish faolligini oshirishda o'quv portfoliosining imkoniyatlari.

4. Kasbiy fanlarni o'qitishda o'quv portfoliosidan foydalanish yo'llari.

Adabiyotlar:

1. Альджанова И.Р. Булажак қозоқ тили ва адабиёти ўқитувчиларини тайёрлашда ўқув портфолиосидан фойдаланиш имкониятлари. // ж. Педагогика таълим, 2012. - №4. – Б.46-50.

2. Новикова Т.Г., Пинская М.А., Прутченков А.С., Федотова Е.Е. Использование портфолио учащегося в предпрофильной подготовке и профильном обучении. Методическое пособие. – М., 2008. – 114 с.

3. Портфолио учащегося: составление и использование: методические рекомендации / Автор-составитель Т.Б. Табарданова. – Ульяновск: УИПК ПРО, 2010.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda o'quv portfoliosining turlari, o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda o'quv portfoliosining imkoniyatlari hamda kasbiy fanlarni o'qitishda o'quv portfoliosidan foydalanish yo'llariga doir bilimlarni tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar:

- o'quv portfoliosi va uning o'ziga xosliklari ni yoritib berish;
- o'quv portfoliosining turlarini tavsiflash;
- o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda o'quv portfoliosining imkoniyatlarini ochib berish;
- kasbiy fanlarni o'qitishda o'quv portfoliosidan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish .

Ta'lim metodi: ma'ruza, tushuntirish, namoyish etish.

Talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish shakli: ommaviy, individual.

Didaktik vositalar: slayd-prezentatsiya, tarqatma materiallar.

Ta'limni tashkil etish sharoiti: maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona.

MASHG'ULOTGA DOIR TARQATMA MATERIALLAR

1-tarqatma material. Portfolio nima?

1) o'quvchining zarur va istiqbolli imkoniyat va qobiliyatlarini, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini ko'rsatib berish, shaxsiy, kasbiy va ijodiy salohiyatini ochib berishning ob'ektiv va maksimal ravishda to'liq aniqlash vositasi (I.A. Knish, I.P. Pastuxova).

2) o'qituvchining baholashga doir faoliyati vositasi (G.B. Golub, O.V. Churakova);

3) individual muvaffaqiyatlar monitoringini amalga oshirish vositasi yoki imtihonning muqobil shakli (T.G.Novikova, M.A.Pinskaya, A.S.Prutchenkov);

5) ta'lim natijalarini belgilab beruvchi muqobil vosita yoki texnologiya (T.G.Novikova, M.A.Pinskaya, A.S.Prutchenkov, E.E.Fedotova);

6) ta'limiy muvaffaqiyatlarni va qo'shimcha natijalarni baholash vositasi (T.G. Novikova, M.A. Pinskaya, A.S. Prutchenkov)yu

7) portfolioni yaratishning maqsadi ta'lim natijalari bo'yicha o'quvchining rivojlanishini namoyish etish va u nimani bilmaydi, nimani bajara olmaydi, xuddi shunday nimani biladi, nimani bajara olmaydi degan savolga javob topishdir. Portfolio o'zida belgilangan tartibda tashkillashtirilgan o'quv materiallari to'plamini aks ettiradi (I.Al'djanova).

2-tarqatma material. O'quv portfoliosining turlari.

1. "Hujjatlar portfoliosi". Bunday turdagi portfolio indiviudal ta'limiy muvaffaqiyatlarning sertifikatlangan portfeli: diplom, faxriy yorliq, guvohnoma va boshqalar.

2. "Ishlar portfoliosi" o'zida turli xil ijodiy ishlar, loyihalar, tadqiqot ishlarini aks ettiradi: reyting daftarchasi, ijodiy ish daftari, elektron hujjatlar, modellar, loyihalar, ijtimoiy amaliyotga doir hisobotlar. Mazkur portfolioda talaba mustaqil va guruhdoshlari bilan birgalikda to'plagan adabiyotlar, davriy nashrlarning kseronusxalari, illyustratsiyalar joylanadi.

3. “Taqrizlar portfoliosi”da talabaning erishgan yutuqlarini baholashga doir xulosalar, taqrizlar, rezyumelar, esselar, tavsifanoma va tavsifnomalar taqdim etiladi.

4. “Natijalar portfoliosi” belgilangan yoʻnalish boʻyicha egallanuvchi talabalar mahoratini jamlash uchun qoʻllaniladi; talabalar yoki pedagoglar tomonidan jamlangan talabalarning eng yaxshi ishlarini oʻzida aks ettiradi. Natijalar portfoliosi individual va guruhli boʻlishi mumkin. Guruh natijalari portfoliosi gʻoyasidan “Eng yaxshi talabalar guruhi” konkursida foydalanish mumkin.

5. “Baholovchi portfolio” talabalarning egallagan bilim va koʻnikmalarini nazorat qilish uchun yigʻiladi va turli xildagi nazorat materiallaridan tashkil topadi: nazorat ishlari, testlar, chizmalar, krossvordlar va boshqalar. Baholovchi portfolioni pedagog mustaqil ravishda tuzishi va taʼlim olish kursi tugashigacha boʻlgan vaqtga moʻljallashi mumkin.

6. “On-line-portfolio” xilma-xil shakllarda qoʻllanilishi mumkin. Bunday portfolioning birinchi shaklida talabalar oliy taʼlim muassasasi yoki fakulʼtet saytiga materiallar qoʻshishlari, ikkinchi koʻrinishi sifatida oʻzlarining shaxsiy veb-saytini yaratish va oʻz tushungani asosida semestr yakunlari boʻyicha hisobot tarzida tayyorlanadigan portfoliodan foydalanish mumkin.

3-tarqatma material. Oʻquvchilarning bilish faolligini oshirishda oʻquv portfoliosining imkoniyatlari

Oʻquv portfoliosi quyidagi pedagogik vazifalarni yyechish imkonini ham beradi:

- 1) oʻquvchilarning yuqori oʻquv motivatsiyasini qoʻllab-quvvatlash;
- 2) oʻquvchilar faolligi va mustaqilligini ragʻbatlantirish,
- 3) taʼlim olish va mustaqil taʼlim olish imkoniyatlarini kengaytirish;
- 4) oʻquvchilarning refleksiv va baholash faoliyati malakalarini rivojlantirish;
- 5) maqsadni qoʻyish, shaxsiy oʻquv faoliyatini rejalashtirish va tashkillashtirish malakalarini shakllantirish;

6) o'quvchilar ta'limining individulizatsiyasiga (shaxsiylashishiga) ta'sir ko'rsatish;

7) muvaffaqiyatli o'z-o'zini reallashtirish imkoniyatlarini shakllantirish;

8) omadga ishonch, xaqqiniylik, maqsadga yo'nalganlik kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirish imkoniyati;

9) umumta'limiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish-aqliy mehnat madaniyatini oshirish imkoniyati;

10) bolaning oiladagi hurmatini oshirish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

4-tarqatma material. Portfolioni ishlab chiqish bosqichlari va bo'limlari

Portfolioni ishlab chiqish jarayoni uchta asosiy bosqichdan iborat bo'ladi:

Birinchi bosqich. Tashkillashtirish va rejalashtirish. Bu portfolio rivojlanishining boshlang'ich bosqichi bo'lib, u o'zida o'quvchilar va pedagog tomonidan qarorning qabul qilinishini mujassam etadi. Ta'limning boshlang'ich jarayonidagi muhim masalalarni tadqiq qilishda, o'quvchilar portfolioning maqsadini va uning mavqe'ini – o'zlaridagi rivojlanishni baholash va nazorat qilish vositasi sifatida to'laligicha tushunib olishlari mumkin.

Ikkinchi bosqich. To'plash. Ushbu jarayon o'zida o'quvchilarning ta'lim tajribasini va ma'lumotlarni yig'ish maqsadini aks ettiruvchi muhim materiallarni yig'ishi aks ettiradi. Bu bosqichdagi qarorlar portfolioning mazmuniga nisbatan, ushbu portfolio mazmunini maxsus identifikatsiyalovchi maqsadlarga asoslangan holda qabul qilinishi lozim. Ma'lumotlarni tanlash va to'plash maxsus mavzularni , portfoliolarni yoki ta'lim jarayonlarini va maxsus fanlarni o'zida birlashtiruvchi turli xil omillarga asoslangan bo'lishi lozim. To'plamda mujassamlashtirilgan barcha tanlab olingan ma'lumotlar, baholash uchun identifikatsiyalangan me'zon va me'yorlarni aniq o'zida aks etishi lozim.

Uchinchi bosqich. Anglab olish. Ushbu jarayon mavjud bo'lgan joyda, o'quvchilarning zarur bilim va malakalarining rivojlanishini tushunish hamda ta'lim jarayoni va nazoratdan keyingi fikrlash reaksiyalari haqidagi aniq dalillar bo'lishi

lozim. Bunday mulohaza o'qitish materiallari, jurnallar va o'quvchilar o'zaro ta'sirlashgan, shuningdek ularning bunday mashg'ulot turlarida namoyon etgan tafakkur usullarining chuqur o'ylashdan keyingi jarayonlarda yuzaga keluvchi fikrlashning boshqa shakllarida ham aks etgan bo'lishi mumkin. Fikrlash bilan bir qatorda portfolio shuningde, mutaxassislarning va pedagoglarning fikrlariga asoslangan ma'lumotlarni ham o'zida mujassam etgan bo'lishi lozim.

Portfolio ko'rinishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u o'zida ma'lum bir tarzda tizimlashtirilgan ma'lumotlar to'plamini mujassam etishi lozim. Ma'lumotlarning yirik bloklari boblar deb ataladi, ularning ichida esa bo'limlar ajratiladi. Boblar va bo'limlar miqdori shuningdek, ularning tematikasi (mavzusi) turli xil bo'lishi mumkin va ular har bir aniq holatlarda aniqlashtiriladi.

Klassik portfolio to'rt qismdan iborat bo'ladi: "Portret", "Kollektor (to'plovchi)", "Ishchi materiallar" va "Muvaffaqiyatlar". Portfolioda, albatta mundarija /so'z boshi (qismlar nomi, ma'lumotlarning nomlanishi bilan) aniq tashkillashtirilgan bo'lishi lozim.

O'quv portfoliosi namunasi[†].

O'quv portfoliosi mavzusi: "Oilam – mening faxrim".

O'quv portfoliosi muallifi: Toxirova Dilnoza

I. Mening oilam

Men Toxirova Dilnoza 1995-yil Toshkent shahrida tug'ilganman. Bizning oila to'rt kishidan iborat. Dadam Zokirov Shokirjon 1957-yil tug'ilgan. Hozirda 27-maktaga rahbarlik qilmoqda. Onam Zokirova Gulbahor 1962-yil tug'ilgan. Hozirda uy bekasi. Akam Toxirov Ulug'bek 1994-yil tug'ilgan. Hozirda "Iqtisodiyot kasb-xunar kolleji" da taxsil olmoqda. Men hozirda "1-Toshkent Pedagogika kolleji"ning 2-bosqich o'quvchisiman.

[†] Mazkur o'quv portfoliosi G.Jo'rayeva tomonidan yozilgan bitiruv malakaviy ishidan olindi. Ilmiy rahbar: dots. B.X.Xodjayev.

II. Kollektor bobi:

“Barkamol shaxsni tarbiyalashda oilaviy tarbiyaning ro’li” mavzusida 4-bosqich o’quvchisi Isroilova Muhabbatning yozgan ilmiy maqolasi.

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarsi, axloqiy ma’suliyat hamda o’zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruh.

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko’rsatadiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo’lib, bu muhitda shaxs komoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini ko’radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy komolotini ta’minlab otionalarda o’ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan farzandlarning bevosita ta’siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengaydi, o’zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya’ni farzandlar komoloti, kelajagi timsolida o’z umri davomiyligini kurash holati ro’y beradi. Shaxsning ma’naviy sifatlarga ega bo’lishi, unda ma’naviy bilimlarga ega bo’lishga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo’lishida oila tarbiyasiasosiy ro’lni bajaradi. Oilada qaror topgan sog’lom ma’naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo’lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir (6-ilova).

III. Ishchi materiallar bobi:

Eshonaliyev Akrom	Akromov Dadaboy
Akromov Dadaboy	Akromov Ra’sul
Akromov Ra’sul	Dadaboyev Jumaboy Rasulov Zokirjon Dadaboyev Rustam
Rasulov Zokirjon	Zokirov Toxir Zokirov Nishonboy

Zokirov Toxir	Zokirov Anvar Zokirov Sobir Zokirov Shakirjon
Zokirov Shakirjon	Toxirov Ulug'bek
Toxirov Ulug'bek	

“Bizning oila shajarasi”.

IV. Muvafaqqiyatlar bobi.

Mening dadam Zokirov Shakirjon 1997-yil “Tarix fanlari nomzodi” ilmiy darajasini oldi. 2011 yilda esa ta’lim sohasidagi ko’p yillik samarali mehnati uchun Prezidentimiz I.A.Karimovning 2011-yilgi qaroriga muvofiq “Mustaqillikning 20 yilligi” ko’krak nishoni bilan taqdirlandi.

Akam Toxirov Ulug'bek 2007-yil bo'ks bo'yicha o'tkazilgan “Ochiq birinchilik” musobaqasida 1-o'rin sohibi bo'lgan, 2008-yil Angren shahar “Ochiq birinchiligi”da 1-o'rinni egallaganligi sababli diplom va medal bilan taqdirlangan. Bundan tashqari 2009-2011- yillarda “1993-2003 yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi boks” musobaqalarida 1-o'rinni egallab, diplom va medallar bilan taqdirlangan.

II BOB. AMALIY MASHG'ULOT ISHLANMALARI

1-AMALIY MASHG'ULOT. MAVZU: KASBIY FANLARNI O'QITISH JARAYONINI LOYIHALAH VA REJALASHTIRISH (4 SOAT)

Talabalarni baholash mezonlari:

- 1) o'quv maqsadlarini oydinlashtirishga doir matn ustida ishlash – 2 ball;
- 2) B.Blum taksonomiyasi ustida ishlash – 2 ball;
- 3) pedagogika fani biror bir mavzusiga doir o'quv mashg'ulotining texnologik modeli va xaritasini ishlab chiqish – 4 ball.

Eslatma: umumiy 8 ball 4 soatlik amaliy mashg'ulot tugagandan so'ng, ikkita mashg'ulotga bo'lib qo'yiladi (har bir mashg'ulot uchun maksimal 4 ball hisobidan).

1-topshiriq. Quyida keltirilgan matn bilan tanishing. So'ngra uni muhokama qilib, o'zaro juftliklarda fikr almashing.

Maqsadni ta'lim mazmuniga binoan belgilash. O'qituvchi odatda mashg'ulotning maqsadini mashg'ulotning maqsadini “Birinci bobning mazmunini o'zlashtirish”, “Bobur lirikasini o'rganish” kabi belgilaydi. Bunda ta'lim maqsadi o'rganila-yotgan predmetning, bilimning mazmunini ko'rsa-tadi. Maqsad bunday ifodalanganda ta'lim maqsa-diga erishilganligini aniqlab bo'lmaydi. Keltirilgan misollardagi “maqsadlar” mavhum ulardan maqsadga erishilganligini o'lchab, aniqlab bo'lmaydi.

Ta'lim maqsadini o'qituvchi faoliyati orqali aniqlash. “Boburning badiiy-pedagogik merosini o'rgatish”, “10 ichida qo'shish amaliga doir misollar ishlatish”. Maqsadni bunday qo'yishda e'tibor o'qituvchining faoliyatiga qaratiladi. Bunda ham pedagog faoliyatining natijasini aniqlash qiyin.

Ta'lim maqsadini talaba shaxsining ruhiy, aqliy, axloqiy, estetik jarayonlari shaklida ifodalash. Masalan, “Voqelikni tahlil etish malaka-sini hosil qilish”, “Ekologik hodisalarga qiziqishni shakllantirish” kabilar. Ta'lim maqsadini bunday umumiy tarzda belgilash o'quv yurti, o'quv fani yoki bir guruh o'quv predmetlari darajasida bo'lishi mumkin. Lekin ayrim mashg'ulot, darsning maqsadini

bunday keng ifodalash foydasiz. Bunda ham mashg'ulotda qanday natijaga erishilganligini bilib bo'lmaydi.

Ta'lim maqsadini talabani o'quv-bilish faoliyati orqali qo'yish. Mashg'ulotning maqsadi "Ijodiy tafakkurni shakllantirishga doir vazifalarni hal etish". Bir qarashda ta'lim maqsadini bunday qo'yish mashg'ulotni rejalashtirish va o'tkazishga aniqlik kiritganga o'xshaydi. Lekin bunda ham eng muhim narsa – mashg'ulotda ko'zda tutilgan natija e'tibordan chetda qoladi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlarining fikricha, ta'lim maqsadlarini predmetning mazmuni, o'qituvchi yoki o'quvchi faoliyati orqali belgilash **mashg'ulotdan kutiladigan natija haqida to'liq tasavvur bermaydi. Ta'lim natijasini talabani ko'zga ko'rinadigan harakatlaridan, tashqi belgilaridan bilib olish mumkin.** O'qituvchi ta'lim maqsadi – natijasini oydinlashtirish uchun kutilayotgan natijaning tashqi, kuzatiladigan belgilarini (harakat, nutq) yaqqol tasvirlashi lozim.

Pedagogik texnologiya taklif etayotgan **maqsadni belgilash** usulining mohiyati shundan iboratki, **ta'lim maqsadi, talabani harakatlarida aks etgan o'qish-o'qitish natijalari orqali ifodalanishi kerak va bu harakatlarni muallim yoki biror ekspert ko'rib, eshitib bilishi va o'lchashi mumkin bo'lsin.**

2-topshiriq. B.Blum taksonomiyasi ustida ishlashga doir test topshiriqlari.

1. O'rganilgan bilimlarni eslab qolish va qayta tiklashni belgilaydigan kategoriyani aniqlang.

- A) Tahlil qilish
- B) Tushunish
- C) Sintez
- D) Bilish

2. Predmetlar va ularga xos bo'lgan xususiyatlarni fikran bir-biriga solishtirish, umumiy va farq qiluvchi jihatlarini topish qanday nomlanadi?

- A) Mavhumlashtirish

- V) Tahlil etish
- S) Taqqoslash
- D) Urnumlashtirish

3. B.Blum taksonomiyasi bo'yicha quyidagi vaziyat qanday kategoriyaga taalluqli? O'quvchi gazeta maqolasiga tanqidiy munosabat bildiradi.

- A) Baholash
- V) Qo'llash
- S) Tushunish
- D) Tahlil etish

4. B.Blum taksonomiyasi bo'yicha quyidagi vaziyat qanday kategoriyaga taalluqli? O'quvchi gazeta maqolasida berilgan dalillar o'rtasida qarama-qarshiliklarni topadi.

- A) Bilish
- V) Sintez
- S) Analiz
- D) Qo'llash

5. B.Blum taksonomiyasi bo'yicha quyidagi vaziyat qanday kategoriyaga taalluqli? O'quvchi gazeta maqolasini talqin qiladi va tushuntiradi.

- A) Baholash
- V) Tushunish
- S) Analiz
- D) Qo'llash

3-topshiriq. Quyida keltirilgan chizma asosida bitta mashg'ulotning ta'lim texnologiyasini ishlab chiqing.

**1.1. “.....”
mavzusidagi mashg'ulotning texnologik modeli**

“.....” mavzusidagi
mashg’ulotning texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O’qituvchi	Talaba
1-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (10 minut)		
2-bosqich. Asosiy (50 minut)		
3-bosqich. Yakuniy (20 minut)		

Mashg’ulotga ajratilgan vaqt –	O’quvchilar soni –
O’quv mashg’ulotining shakli	
Mashg’ulot rejasi	
O’quv mashg’ulotining maqsadi	
Pedagogik vazifalar:	O’quv faoliyati natijalari:
Ta’lim metodi	
Talabalarning o’quv faoliyatini tashkil etish shakli	
Didaktik vositalar	
Ta’limni tashkil etish sharoiti	
Nazorat	

2-AMALIY MASHG'ULOT. MAVZU: KASBIY FANLARNI O'QITISHDA INTERFAOL TA'LIMNI TASHKIL ETISH (4 SOAT)

Talabalarni baholash mezonlari:

- 1) o'quvchilarning individual ishlashini tashkil etishga doir o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish va tushuntirib berish – 2,5 ball;
- 2) o'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashini tashkil etishga doir topshiriqlarni ishlab chiqish va tushuntirib berish – 2,5 ball;
- 3) ochiq javobli, ijodiy va muqobilini tanlab olishga doir testlar tuzish – 3 ball.

Eslatma: umumiy 8 ball 4 soatlik amaliy mashg'ulot tugagandan so'ng, ikkita mashg'ulotga bo'lib qo'yiladi (har bir mashg'ulot uchun maksimal 4 ball hisobidan).

Amaliy ish topshiriqlari.

1-topshiriq. O'quvchilarning individual ishlashini tashkil etishga doir o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish.

Quyida keltirilgan namuna tarzidagi individual ish topshirig'i bilan tanishish va pastda keltirilgan mavzulardan birini tanlab olib, mustaqil ravishda individual bajarishga mo'ljallangan topshiriqni ishlab chiqing.

Namuna uchun topshiriq ishlanmasi. “Pedagogik aksiologiya fanini o'rganishning zaruriyati shundaki...” mavzusida asoslangan esse yozing.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazarinigizni bayon eting.
2. Nuqtai nazarinigizni asoslash uchun dalillar kiriting.
3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

Individual bajarishga mo'ljallangan topshiriqlarni ishlab chiqish uchun mavzular:

1. Tarbiya jarayoni va mazmuni.
2. Pedagoglik kasbi va unga quyiladigan talablar.
3. Ta'lim metodlari.

4. Ta'limni tashkil etish shakllari.
5. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari.

2-topshiriq. O'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashini tashkil etishga doir topshiriqlarni ishlab chiqish.

Quyida keltirilgan namuna tarzidagi kichik guruhlarda ishlashga doir ish topshirig'i bilan tanishish va pastda keltirilgan mavzulardan birini tanlab olib, mustaqil ravishda kichik guruhlarda bajarishga mo'ljallangan topshiriqni ishlab chiqing.

Namuna uchun topshiriq ishlanmasi. Quyida keltirilgan fikrlarni qaysi olimga tegishli ekanligiga qarab tartiblang va "indiv. javob" ustuniga (masalan "1" raqamli fikrga "3" raqamdagi javob) yozing. Topshiriqni individual baharib bo'lgach, kichik guruhlarga bo'linib, xuddi shunday tartibdagi ishni amalga oshiring, ya'ni guruh javobi ustunini to'ldiring.

Fikrlar	Guruh javobi	Guruh xatosi	Kalit	Indiv. xato	Indiv. javob	Olimlar
Mudarris ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim						Adolf Disterverg
Yaxshi o'qituvchi o'quvchilarga tayyorini bermaydi, tushuntirishga o'rgatadi						Alisher Navoiy
Bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish lozim						Imom Al-Buxoriy

Kichik guruhlarda bajarishga mo'ljallangan topshiriqlarni ishlab chiqish uchun mavzular:

1. Tarbiya haqidagi allomalarning fikrlari.
2. Barkamol shaxsning mehnat tarbiyasi.

3. Tarbiya metodlari.
4. Ta'lim jarayonining mazmuni.

3-topshiriq. Ta'lim natijalariga erishilganlikni aniqlashga doir ochiq javobli, ijodiy va muqobilini tanlab olishga doir test tuzish.

Quyida keltirilgan namuna tarzidagi ochiq javobli, ijodiy va muqobilini tanlab olishga doir testlar bilan tanishing va pastda keltirilgan mavzulardan birini tanlab olib, mustaqil ravishda uchta test turiga doir uchtdan test topshirig'ini ishlab chiqing.

Namuna uchun test topshiriqlari.

1. Ochiq javobli test namunasi.

Shaxsning o'zini ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog'liqlikda faoliyatga tayyorgarlikning mavjudligi nima deb ataladi?

- A) Aksiologik dunyoqarash
- B) Aksiologik ustanovka
- C) Aksiologik ong
- D) Aksiologik baholash

2. Ijodiy test namunasi.

2.1. Gapni davom ettiring.

Tamoyil deganda ...

2.2. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni topib qo'ying.

O'zbekiston kelajagi ... davlat.

2.3. Gapni tugallang.

Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi obyektiv, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik...

3. Muqobilini tanlab olish testi namunasi.

1. Barcha millat kishilari uchun
muqaddas boylik bo'lib, ularni
ezgulikka, poklikka da'vat etadi.

A) shaxsiy-individual

2. Xalqning turmush tarzi va uning bugungi ruhiyati, anʼanalari, madaniyati, psixologiyasi xususiyatlarini ifoda etib, dunyodagi barcha millat va dinga mansub shaxslar uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan birga xalqaro demokratik talablariga javob beradi.

V) milliy qadriyatlar

3. Millatga mansub boʻlgan umumjahon taraqqiyoti qonuniyatlaridan biri boʻlib, oʻz millatidan, oʻz yurtidan faxrlanish, oʻzbek davlati fuqarosi ekanligidan gʻururlanish kabilarni oʻzida aks ettiradi.

S) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar

Ochiq javobli, ijodiy va muqobilini tanlab olishga doir testlar tuzish uchun mavzular:

1. Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim tizimi.
2. Shaxsning oʻsishi, shakllanishi va tarbiyasi.
3. Oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini baholash.

3-AMALIY MASHGʻULOT. MAVZU: MASHGʻULOTNING DAʼVAT BOSQICHIDA QOʻLLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR (2 SOAT)

Talabalarni baholash mezonlari:

- 1) mashgʻulotning daʼvat bosqichida qoʻllaniladigan interfaol metodlarni qoʻllash qoidalarini tushuntirib berish – 2 ball;
- 2) mashgʻulotning daʼvat bosqichida qoʻllaniladigan interfaol metodlarni amaliyotda koʻrsatib berish – 2 ball;

Amaliy ish topshiriqlari.

1-topshiriq. Mashg'ulotning da'vat bosqichida qo'llaniladigan interfaol metodlarni qo'llash qoidalari bilan bo'g'liq fikrlarni tegishligiga qarab to'g'ri ustunga joylashtiring.

- 1) o'quvchilardan o'z xayollariga kelgan fikrlarni to'xtatmasdan yozish so'raladi;
- 2) muhokama uchun savol o'rta tashlanadi;
- 3) besh minut tugadi, deb aytiladi, biroq fikrni tugatish uchun yana bir minut qo'shib beriladi;
- 4) birikma bo'yicha so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi;
- 5) chalkashlikni aniqlash, fikrlarni to'g'ri o'ringa qoyib chiqish talab etiladi;
- 6) o'quvchilarning g'oyalari doskaga yozib boriladi;
- 7) yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi;
- 8) mashg'ulotning kirish qismida jadvalning birinchi va ikkinchi ustunlari to'ldiriladi;
- 9) tizimli fikrlash, sistemaga solish va tahlil etish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- 10) axborot xaritasini tuzish yo'li, qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Aqliy hujum	Klaster	B-B-B chizmasi	Erkin yozish	Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma- ketligi

2-topshiriq. Quyida keltirilgan mavzular bilan tanishing va mashg'ulotning da'vat bosqichida qo'llaniladigan interfaol metodlardan qaysi birini qo'llash mumkinligini aniqlang. Ushbu mavzuda qaysi metodni qo'llash mumkinligiga qarab jadvalga "+" ishorasini kiriting.

Mavzular	Aqliy hujum	Klaster	B-B-B chizmasi	Erkin yozish	Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi
Tarbiyaning tarixiy, umuminsoniy va milliy xususiyatlari					
O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni mohiyati					
Tarbiya metodlari					
Didaktika ta'lim nazariyasi sifatida					
Dars – maktabda ta'limni tashkil etishning assosiy shakli					
Barkamol shaxsning jismoniy tarbiyasi					
Barkamol shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi					
Tarbiya tarkibida bolalar va yoshlar tashkilotlari					
O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish					

3-topshiriq. Kichik guruhlarda ishlash. Kichik guruhlarga bo'lining va o'zingizga taklif etilgan mavzu bilan bo'g'liqlikda qo'llash talab etilgan mavzuda taqdimot tayyorlang.

1-guruh uchun. "Ta'lim metodlari" mavzusida "Erkin yozish" metodini qo'llash.

2-guruh uchun. "Didaktika – ta'lim nazariyasi sifatida" mavzusida "Klaster" grafik organayzerini qo'llash.

3-guruh uchun. "O'quvchilfr jamoasi – tarbiya obyekti va subyekti sifatida" mavzusida "Aqliy hujum" metodini qo'llash.

4-guruh uchun. "Barkamol shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi" mavzusida "B-B-B" chizmasini qo'llash.

4-AMALIY MASHG'ULOT. MAVZU: MASHG'ULOTNING ANGLASH BOSQICHIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR (2 SOAT)

Talabalarni baholash mezonlari:

1) mashg'ulotning anglash bosqichida qo'llaniladigan interfaol metodlarni qo'llash qoidalarini tushuntirib berish– 2 ball;

2) mashg'ulotning anglash bosqichida qo'llaniladigan interfaol metodlarni amaliyotda ko'rsatib berish – 2 ball;

1-topshiriq. Quyida keltirilgan lavhalar bilan tanishing. Ularga izoh bering.

1)

	+	–	?

2)

-
1. O'quv maqsadlarini oydinlashtirish deganda nimani tushunasiz?
 2. Ta'lim maqsadlarini qay tarzda belgilash kutilgan natijaga erishishga imkon beradi, deb hisoblaysiz?
 3. Ta'lim maqsadi talabani harakatlarida aks etgan o'qish-o'qitish natijalari orqali ifodalanishi kerak, degan fikrga qanday qaraysiz?
-

3)

2-topshiriq. Quyida keltirilgan misollar bilan tarnishing va ularga mos ravishda interfaol metodni qo'llab ko'rsating.

1-misol. Tushunchalar: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, bilim olish, pedagogik faoliyat, standart, ta'lim tizimi, ta'lim turlari.

2-misol. Mustaqil ishlarni tashkil etishda yangi axborotlardan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

1. Tarmoqdan axborot izlash – web-brauzer, ma'lumotlar bazasidan foydalanish, axborot-qidiruv, axborot-ma'lumotnoma tizimlari, avtomatlashgan kutubxona tizimlari, elektron jurnallardan foydalanish.

2. Tarmoqda dialogni amalga oshirish – elektron pochta, sinxron telekonferentsiyalardan foydalanish. Tarmoqda dialogni amalga oshirishni quyidagicha ko'rinishda tashkil etish mumkin: o'tkazilgan yoki o'tkazilishi ko'zda tutilgan ma'ruzalarni muhokama qilish; mutaxassis yoki talabalar bilan sinxron telekonferentsiya(chat)da muloqotni amalga oshirish.

3. Tematik web-sahifa, web-kvest(topshiriq)lar yaratish – html-muharriri, web-brauzer, grafik muharrirlardan foydalanish. Tematik web-sahifa, web-kvest (topshiriq)lar yaratishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: saytda talabalar tomonidan bajarilgan referatlar va retsenziyalar, ishlarni joylashtirish; mavzuga doir

adabiyotlar ro'yxatini chop etish; indiviudal va kichik guruhlarda ishlashga doir mavzuli web-sahifalarni yaratish; mavzu bo'yicha ishlash uchun web-kvestlar yaratish va ularni kursga doir saytda joylashtirish.

5-AMALIY MASHG'ULOT. MAVZU: MASHG'ULOTNING FIKRLASH BOSQICHIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR (2 SOAT)

Talabalarni baholash mezonlari:

1) mashg'ulotning fikrlash bosqichida qo'llaniladigan interfaol metodlarni qo'llash qoidalarini tushuntirib berish– 2 ball;

2) mashg'ulotning fikrlash bosqichida qo'llaniladigan interfaol metodlarni amaliyotda ko'rsatib berish – 2 ball;

1-topshiriq. Quyida keltirilgan savollar bilan tarnishing va ularga yozma ravishda javob bering.

1. Bir-birini kesadigan ikki yoki undan ortiq doiralarda qo'llaniladi, ular o'rtasida yozish uchun etarli joy qolishi kerak. U g'oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini ko'rsatib berishi kerak. Bu yerda qaysi grafik organayzer haqida bormoqda?

2. Munozara vaqtida qo'shaloq javoblar (ha/yo'q, tarafdor/qarshi) yoki taqqoslash-zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. Qaysi grafik organayzer xuddi shunday xususiyatga ega?

3. Uchta va undan ko'p jihatlar yoki savollarni taqqoslash taqozo etilganida ushbu metod, ayniqsa foydali bo'ladi. Jadval quyidagicha tuziladi: vertikal bo'yicha taqqoslanadigan narsalar, gorizontal bo'yicha esa, ushbu taqqoslash bajariladigan xususiyat va xossalar joylashtiriladi. Ushbu ta'rif qaysi grafik organayzerga xos?

2-topshiriq. Quyida keltirilgan chizmalar bilan tarnishing va qaysi grafik organayzerni qo'llashga muvofiq kelishiga qarab amalda bajarib ko'rsating.

1)

Ta'lim vositalari			
Vosita	Belgilari	Ta'rifi	Funktsiyasi
Ideal vositalar	g'oya, fikr, dalil, isbot	chizmalar, jadvallar, diagrammalar, san'at asarlari	tashkiliy, ta'limiy
Material vositalar	narsa-buyum	darslik, o'quq qo'llanma, ko'rgazmali vositalar, mebel'	ta'limiy, tarbiyaviy, motivatsion, boshqarish

2)

"Yagona pedagogik jarayon" tushunchasi tavsifi	Yagona pedagogik jarayonning tuzilishi va tarkibiy qismlari	Yagona pedagogik jarayonning qonuniyatlari	Yagona pedagogik jarayonning tamoyillari
Ko'plab jarayonlarning ichki aloqa-dorligi yig'indi-sidir. unda o'qitish, ta'lim, tarbiya, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari birlashadi.	- maqsad va vazifalar; - pedagogik kadrlar; - ilmiy kadrlar; - ta'lim oluvchilar; - moddiy-texnik ta'minot - moliyaviy ta'minot; - shart-sharoitlar; - tashkil etish va boshqarish	✓ Tarbiya, o'qitish, ma'lumot va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi qonuniyati. ✓ Tarbiya va o'zi-ni-o'zi tarbiyalash-ning birligi qonuniyati.	✓ pedagogik jarayonning maqsadga yo'naltirilganligi; ✓ ta'lim va tarbiya mazmuni-ning ilmiyligi; ✓ ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, tushunar-lilik; ✓ tizimlilik va ketma-ketlik;

6-AMALIY MASHG'ULOT. MAVZU: KEYS-STADI METODI

Talabalarni baholash mezonlari:

- 1) keys-stadi asoslangan mashg'ulot ishlanmasini tuzish -- 4 ball;
- 2) ikkita amaliy keys topshirig'ini ishlab chiqish – 4 ball.

1-topshiriq. Quyida berilgan namuna asosida “Ta’lim olganlikni tashxis etish” mavzusiga bag’ishlangan keys annotatsiyasini tuzing.

Pedagogik annotatsiya (namuna uchun)

O’quv fani: pedagogik innovatika.

Mavzu: Innovatsion jarayonlarni boshqarish.

Keysning asosiy maqsadi: innovatsion jarayonlarni boshqarishga doir modellarni o’rganish, tahlil etish va pedagogika kollejlari innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarishning tashkiliy modelini ishlab chiqish.

O’quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

- 1) innovatsion jarayonlarni boshqarishning o’ziga xosliklarini ochib berish;
- 2) modellarga tavsifnomalar tayyorlash;
- 3) umumiy o’rta ta’limda innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarishning tashkiliy modelini ishlab chiqish;

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalar oldindan quyidagi bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lishlari lozim:

O’quvchi quyidagilarni bilishi kerak:

innovatsiya, innovatsion jarayon, boshqarish, boshqaruv ob’ekti, boshqaruv sub’ekti, boshqaruv metodlari, boshqaruv funksiyalari.

O’quvchi quyidagi ko’nikmalarga ega bo’lishi kerak:

tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish, abstraktlashtirish, loyihalash, modellashtirish.

O’quvchi quyidagi malakalarga ega bo’lishi kerak:

individual va hamkorlikda ishlash, kognitiv, evristik, kreativ faoliyat malakalari.

Manbalardan foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati:

1. Омонов Н.Т., Хўжаев Н., Мадярова С., Эшчонов Э. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009.

2. Ангеловски К. Учителя и инновации. Пер. с македонского. – М.: Просвещение, 1991.

3. Поляков С.Д. В поисках педагогической инноватики. – М., 1993.

4. Поташник М.М. Инновационные школы России: становление и развитие. Опыт программно-целевого управления: Пособие для руководителей общеобразовательных учреждений / Вступит. ст. В.С.Лазарева. – М.: Новая школа, 1996.

5. Сластёнин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: Инновационная деятельность. – М.: Магистр, 1997.

6. Хуторской А. В. Педагогическая инноватика. – М.: Академия, 2008.

7. Юсуфбекова Н.Р. Общие основы педагогической инноватики: Опыт разработки теории инновационных процессов в образовании. – М., 1991.

8. Ходжаев Б.Х., Зуфаров Ш.М. Педагогик инноватика. – Т.: “Fan va texnologiya” nashriyati, 2010.

Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhali bo'lib, aniq topshiriqlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy ob'ekti innovatsion jarayonlarni boshqarishga yo'naltirilgan. Bu tashkiliy keys bo'lib, ma'lumotlar topshiriqlar asosida tuzilgan. Hajmi o'rta tizimlashtirilgan bo'lib, treningga mo'ljallangan. Mavzu yuzasidan ko'nikma va malaklarni egallashga yo'naltirilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilish, ularni hal etish, tahlil etish va yangi modelni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish texnologiyasini yaratish va baholashga yo'naltirilgan.

Ushbu keysdan “Ta’lim tizimini boshqarish” va “Pedagogik innovatika” fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

2-topshiriq. Quyidagi jadvalda keysdagi aniq vaziyatlarni bosqichma-bosqich tahlil etish va hal etish bo'yicha o'quvchilarga uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Biroq jadvalning ikkinchi qismida maslahat va tavsiyalar qayd etilmagan. Siz jadvalni nihoyasiga yetkazing.

Ish bosqichlari va vaqti	Maslahat va tavsiyanomalar
1. Keys bilan tanishish (individual) – 3 daqiqa	
2. Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlash (individual va kichik guruhlarda) – 5 daqiqa	
3. Muammo echimini topish va erishiladigan natijani aniqlash – 7 daqiqa	
4. Keys echimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti (kichik guruhlarda) – 5 daqiqa	

3-topshiriq. Quyida keltirilgan amaliy keys bilan tarnishing va pastda ko'rsatilgan jadval asosida uning yechimini toping.

Keys topshirig'i. Siz ishlaydigan pedagogika kollejidagi bir nechta o'quvchiga o'zingiz o'tayotgan fandan 1-semestr bo'yicha baho qo'ymadingiz. Biroq o'quv yili yakunida jurnalda mazkur o'quvchilarga baho qo'yilganining guvohi bo'ldingiz. Siz o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga uchrashdingiz. O'quv

ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari ularga bahoni guruh rahbari qo'yib yuborganini aytdi. Mazkur vaziyatda siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

Keys echimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti uchun chizma namunasi

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Echim	Natija

7-AMALIY MASHG'ULOT. MAVZU: O'QUV LOYIHASI

Talabalarni baholash mezonlari:

- 1) o'quv loyihasiga asoslangan mashg'ulot ishlanmasini tuzish – 4 ball;
- 2) o'quv loyihasini himoya qilish– 4 ball.

Topshiriq. Quyida keltirilgan mavzulardan birini tanlab oling va keltirilgan namunaviy talablar asosida o'quv loyihasini ishlab chiqing.

1. Estetik tarbiya.
2. Ekologik tarbiya.
3. Iqtisodiy tarbiya.
4. Tolerantlik tarbiyasi.

PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

Fanning nomi:

Mavzuning nomi:

Ishtirokchilar:

Ta'limning maqsadi:

Rejashtirilayotgan o'quv natijalari:

Loyihalashtirish faoliyati bo'yicha quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi:.

O'quvchilar loyihani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun bilishlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar quyidagilardan iborat:

O'quvchi quyidagilarni bilishi kerak:

O'quvchi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

O'quvchi quyidagi malakalarga ega bo'lishi kerak:

Turlanish belgilari bo'yicha loyihaga tavsif:

Loyihani bajarish tartibi:

Loyihaning baholanishi –

Loyihaviy ta'limni tashkil etish bosqichlari

Tayyorlov bosqichi:

Loyihani bajarish bosqichlari:.

Yakuniy bosqich:.

Loyiha asosida o'qitishni boshqarish:

Ta'lim modelining qisqacha tavsifnomasi

Loyiha asosida o'qitish jarayonida quyidagilar qo'llaniladi:

o'qitish usullari:

o'qitish shakllari:

o'qitish vositalari:

Loyiha topshirig'i

Loyiha doirasida echilishi kerak bo'lgan muammo:

Muammo osti muammolar:

Loyihaning maqsadi (nima uchun yaratilayapti?):

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija (loyiha mahsuli):

Loyihadan foydalanuvchilar:

Loyiha doirasi:

- bajarilish muddati:
- ishtirokchilar soni:

Loyiha bajarilishining namunaviy ish rejasi

Ishtirokchilarning F.I.O.	Topshiriq	Faoliyat turi	Kutiladigan natija	Bajarilish muddati
*				**

* – har bir guruhdagi ishtirokchilar hamda mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda ishtirokchilarning F.I.O.lari belgilanadi;

** – bajarish muddatlari tanlangan loyiha yo'nalishi va guruhdagi vaziyatga bog'liq ravishda muayyan holatdan kelib chiqib, belgilanadi.

Talabalar tomonidan ishlab chiqilgan o'quv loyihalarini baholash mezonlari

O'quv loyihalarini baholashning umumiy mezonlari:

- muammoning dolzarbligi va ahamiyatini yoritib berish;
- muammoning to'liq yoritilganligi;
- muammoni hal etishdagi originallik;
- artistizm va ifodaning yorqinligi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olish;
- loyiha yuzasidan savollarga javob bera olish.

8-AMALIY MASHG'ULOT. MAVZU: O'QUV PORTFOLIOSI (4 soat)

Talabalarni baholash mezonlari:

- 1) o'quv portfoliosini yaratish– 3 ball;
- 2) o'quv portfoliosi taqdimotini o'tkazish– 3 ball.

1-topshiriq: O'quv portfoliosi borasida olingan bilimlaringizga asoslangan holda "Toifalash" jadvalini tuzing.

O'quv portfoliosi tushunchasi	O'quv portfoliosining turlari	O'quv portfoliosining bo'limlari

2-topshiriq: "Talabalik – oltin davrim" mavzusida o'quv portfoliosi tuzing.

O'quv portfoliosini yaratishda quyidagi qadamlar ketma-ketligiga rioya qiling:

1-qadam. Portfolioning tuzilishi bilan tanishish:

- 1) titul qismi;
- 2) mundarija;
- 3) portfolioning maqsadini ko'rsatish.
- 4) portfolioning bo'limlari haqida ma'lumot berish.

2-qadam. Portfolioning turini aniqlab olish.

3-qadam. O'quv portfoliosida quyidagi bo'limlar aks etishi lozim:

"Mening qiyofam" bo'limi. Unda quyidagi lavhalar mavjud:

- “Mening anketam”;
- “Tanishing – bu men!”;
- “Mening o`ylarim”;
- “Men va mening qiziqishlarim”.

“Kollektor” bo’limi. Mazkur bo’limda quyidagi lavhalar tayyorlanadi:

- “Ish stoli”;
- “Bu qiziq”;
- “Kursdoshlarimning ijodidan”.

“Ish materiallari” bo’limi. Mazkur bo’lim quyidagi lavhalarni o’z ichiga qamrab oladi:

- “Yozma ishlar”;
- “Mening mulohazalarim”;
- Shaxsiy xatolarim tahlili”.

“Yutuqlar” bo’limi:

- “Mening bunyodkor g’oyam”;
- “Mening ta’limdagi tashabbusim”.

Portfolioni baholash mezonlari:

- 1) savodxonlik;
- 2) estetiklik;
- 3) maqsadga erishilganlik;
- 4) mazmunning boyligi;
- 5) ijodiy yondashuv.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққийёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 71 б.
2. Каримов И.А. Ёксак малакали мутахассислар – тараққийёт омили. – Т.: Ўзбекистон, 1995. – 24 б.
3. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 138 б.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққийёт кафолатлари – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 315 б.
5. Каримов И.А. Жамяитимиз мафқураси халқни -- халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин. 7-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1999.
6. Каримов И.А. Ёксак маънавият – снгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.
7. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 59 б.
8. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққийёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 80 б.
9. Каримов И.А. Ёксак билимли ва интеллектуал ривжланган авлодни тарбиялаш мамлакатни барқарор тараққийёт этириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шarti. // “Маърифат” газетаси, 2012 йил.
10. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни// “Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққийётининг пойдевори” китобида. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 20-29.
11. Ўзбекистон Республикасининг “Қадрлар тайёрлаш миллий дастури”// “Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққийётининг пойдевори” китобида. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.31-61.

12. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 80 б.

22. Азизхужаева Н.Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. – Т.: ТДПУ, 2000. – 52 б.

23. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т.: ТГПУ, 2003. – 192 с.

24. Бахарева М.В., Никитина Э.В., Угольников Е.Г. Использование технологии «учебный портфолио» // Приложение к журналу среднее профессиональное образование. – М., 2006. - № 1. – С. 41-45.

25. Бекмурадов А.Ш., Голиш Л.В., Хашимова Д.П., Хажиева К.Н. Лойиҳавий таълимнинг технологияси. – Т.: ТДИУ, 2010. – 44 б.

26. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш. – Т.: ТДИУ, 2010. – 149 б.

27. Голиш Л.В., Саидова Д.Т. Тренинг – форма оперативного повышения квалификации педагогических кадров. (в вопросах и ответах). – Т.: ТГЭУ, 2008. – 144 с.

28. Голуб Г.Б., Чуракова О.В. Портфолио в системе педагогической диагностики // Школьные технологии. – М., 2005. - № 1. – С. 181-195.

29. Джарлеспесов Т.Е. Учебно-методический практикум по курсе «История педагогики». – Т., 2010. – 112 б.

30. Джарлеспесов Т.Е. Как создать творческую группу? – Т.: «Fan va texnologiyalar» нашриёти, 2011. – 78 с.

31. Йўлдошев Ж.Ғ. Педагогик инновацияларни ҳаётга татбиқ этишнинг ташкилий асослари. // ж. Халқ таълими. – Т., 1999. - №6. – Б.4-9.

32. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: Ўқитувчи, 2004. – 101 б.

33. Кларин М.В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических классах. – М., 1994. – 178 с.

34. Кларин М.В. Инновации в обучении: метафоры и модели: Анализ зарубежного опыта. – М.: Наука, 1997. – 223 с.
35. Кларин М.В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. – М.: Арена, 1994. – 222 с.
36. Книш И.А., Пастухова И.П. Портфель индивидуальных достижений как контрольно-оценочное педагогическое средство // Среднее профессиональное образование. 2008. №1. С.69-73.
37. Котляров И.О. Соотнесение инноваций в образовательном учреждении с развитием профессионально-педагогической квалификации. – Челябинск: ЧГПУ, 1999. – 169 с.
38. Кравченко Т.И. Инновация как средство развития педагогического мышления учителя современного образовательного учреждения.: дисс. ... канд. пед.наук. – Ставрополь, 2004. – 170 с.
39. Кудрявцева Е.Ю. Портфолио как инструмент самообразовательной деятельности учащихся // Профильная школа. 2008. №4. С. 8-12.
40. Кузьмин С.В. Инновационная деятельность педагогического коллектива как фактор его развития.: Автореф. ... на соискание ученой степени канд. пед.наук. – Ярославль, 2003. – 22 с.
41. Курдюмова И.М. Оценка качества профессионального образования в Великобритании. – М.: Издательский центр НОУ ИСОМ, 2003. – 36 с.
42. Куркин Е.Б. Управление инновационными проектами в образовании: Учеб. пособие. – М.: Педагогика-Пресс, 2001. – 325 с.
43. Лазарев С., Ставринова Н.Н. Критерии и уровни готовности будущего педагога к исследовательской деятельности// Педагогика. – М., 2006.- № 2. – С.51-59.
44. Личностное портфолио старшеклассника: учеб.-метод. пособие. / З.М. Молчанова, А.А. Тимченко, Т.В. Черникова. 3-е изд., стереотипное. М.: Глобус, 2008. – 128 с.

45. Новикова Т.Г., Пинская М.А., Прутченков А.С. «Портфолио» - новый и эффективный инструмент оценивания // Директор школы. 2008. № 2. С. 32-35.
46. Новикова Т.Г., Пинская М.А., Прутченков А.С., Федотова Е.Е. Использование портфолио учащегося в предпрофильной подготовке и профильном обучении. Методическое пособие. – М., 2008. – 114 с.
47. Новикова Т.Г., Прутченков А.С., Пинская М.А. Портфолио в российской школе // Народное образование. 2005. №1. С. 84-97.
48. Новикова Т.Г., Федотова Е.Е. Портфолио и изменение концепции деятельности школы, содержания и методов обучения // Народное образование. 2009. №8. С. 178-184.
49. Пинская М.А. Портфолио как инструмент оценивания образовательных достижений учащегося в условиях профильного обучения: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. / Академия повышения квалификации и профессиональной переподготовки работников образования. М., 2007. 22 с.
50. Поляков С.Д. В поисках педагогической инноватики. – М., 1993. – 56 с.
51. Портфолио учащегося: составление и использование: методические рекомендации / Автор-составитель Т.Б. Табарданова. – Ульяновск: УИПК ПРО, 2010. – 21 с.
52. Портфолио учителя / сост. Л.П. Макарова. – Волгоград: Учитель, 2010. – 102 с.
53. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика – инновационная деятельность. – М.: Магистр, 1997. – 221 с.
54. Слободчиков В.И. Инновационные образования. // ж. Школьные технологии. – М., 2005. – №2 – С.4-12.
55. Смолянинова О.Г. Е-портфолио в оценивании образовательных достижений и профессиональном развитии магистров // Информатика и образование. 2009. №12. С. 121-122.

56. Сухомлинова М.В., Собирова У. Педагогик инновациялар: олий ўқув юртларида интерактив-коммуникатив таълим услублари. // ж. Таълим менежменти. – Т., 2007. – №3. – Б.98-107.

57. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Т.: Фан, 2005. – 205 б.

58. Тройнев В.А., Тройнев И.В. Интенсивные педагогические технологии в гуманитарном образовании (методология и практика). – М.: Дашков и К°, 2006. – 282 с.

59. Хажиева К.Н. Иқтисодий олий ўқув юртидаги таълимнинг лойиҳали технологияси. – Т.: ТДИУ, 2009. – 148 б.

60. Ходжаев Б.Х., Зуфаров Ш.М. Педагогик инноватика. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2010. – 80 б.

61. Юнусова Д.И. Бўлажак математика ўқитувчисини инновацион фаолиятга тайёрлаш назарияси ва амалиёти: Педагогика фанлари номзоди. ...дисс. – Т., 2012. – 46 б.

Адади 100 нусха. Ҳажми 4 б.т.
Низомий номидаги ТДПУ Ризографида нашр қилинди.

